



2023: Special Issue "Problems and Prospects for the Development of Accounting, Economic Analysis and Audit Based on International Standards in the Conditions of Economy Digitalization"

TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA MUAMMOLI KREDITLAR VA ULARNING TAHLILI

Namozov Bekjon Bo'ron o'g'li

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti,
Bank ishi va auditi ta'lim yo'nalishi 2 bosqich talabasi

Annotatsiya

maqolada tijorat banklari faoliyati samaradorligini belgilashda muammoli kreditlarning o'rni, banklarda muammoli kreditlar bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish yo'llari hamda rivojlangan mamlakatlar tajribalari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, Oz'bekiston Respublikasi bank tizimidagi mavjud holat va ularda muammoli kreditlarning ulushi hamda ularni kamaytirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: muammoli kredit, bank, tijorat banki, moliyaviy resurs, innovatsiya, to'lov, layoqatlilik, tizim.

Kirish

Muammoli kreditlar to'lovga qabul bo'lmagan kreditlar, yoki yomon qarz oluvchilar nomi bilan ham tanilgan bo'lib, tijorat banklari va umuman moliya tizimi uchun jiddiy xavf tug'diradi. Muammoli kreditlarni o'rganishning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat: **birinchidan**, muammoli kreditlar banklarning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Agar muammoli kreditlar soni ortib ketsa, bu bank kapitalining qisqarishiga olib keladi va uning barqarorligiga tahdid soladi. Muammoli kreditlar tahlili banklarga yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni aniqlash va ularni boshqarish choralari ko'rish imkonini beradi, **ikkinchidan**, muammoli kreditlar tijorat banklari duch keladigan kredit tavakkalchiligi natijasidir. Kredit riskini baholash va tahlil qilish banklar uchun qarz oluvchilarning to'lov qobiliyatini baholash va kredit berish to'g'risida qaror qabul qilish uchun muhim vazifadir. Muammoli kreditlar tahlili to'lovga layoqatsizlikka olib kelgan omillarni aniqlashga yordam beradi hamda banklarga kredit berish va risklarni boshqarish jarayonlarini takomillashtirishga imkoniyat yartadi, **uchinchidan**, aksariyat mamlakatlarda muammoli kreditlarni boshqarishga nisbatan tijorat banklari uchun qoidalar va talablarni belgilovchi nazorat qiluvchi organlar mavjud. Banklar risklarni minimallashtirish va moliyaviy inqirozlarning oldini olish uchun ushbu talablarga rioya qilishlari kerak. Muammoli kreditlar tahlili banklarga tartibga soluvchi standartlar va qoidalarga rioya qilish imkonini beradi, **to'rtinchidan**, yangi texnologiyalar paydo bo'lishi bilan muammoli kreditlar tahlili aniqroq va tahlillar samaraliroq bo'ldi. Banklar tendentsiyalarni aniqlash va kelajakdagi muammoli kreditlarni bashorat qilish, kredit riskini baholash usullarini takomillashtirish uchun ushbu vositalardan faol foydalanmoqda. Avtomatlashtirilgan ma'lumotlarni tahlil qilish tizimlaridan foydalanish banklarga katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash va kreditlar bilan bog'liq yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni ko'rsatishi mumkin bo'lgan

yashirin aloqalar va belgilarni aniqlash imkonini beradi, **beshinchidan**, tijorat banklari xo'jalik yurituvchi subyektlar va jismoniy shaxslarga kreditlar berish orqali iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Biroq, muammoli kreditlar kredit mavjudligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi va iqtisodiy o'sishni sekinlashtirishi mumkin. Muammoli kreditlar tahlili banklarga kredit siyosatini takomillashtirish, risklarni kamaytirish va barqaror iqtisodiy rivojlanishga yordam beradi.

Xususan, "Asakabank" AJ va "Turonbank" ATB hududiy tuzilmalarida ichki nazorat faoliyati samarali yo'lga qo'yilmagan.

Bank xizmatlarini ko'rsatish to'liq raqamlashtirilmagan, imtiyozli kredit ajratish tizimi sodda va shaffof emas, inson omili yuqori darajada saqlanib qolmoqda.

Banklarda muammoli kreditlar bilan ishlash, xususan potensial muammoli qarzdorlarni oldindan aniqlash mexanizmi joriy etilmagan.

Muammoli kreditlar ulushi 2021-yil yakunida 5,2 foizgacha oshgan (2020-yil yakunida 2,1 foiz bo'lgan), 21,4 trln so'mlik (bank tizimi kredit portfelining 15 foizi) potensial muammoli kreditlarni qaytarish muddatlari takroran 3-6 oyga uzaytirilgan.

Muammoli kreditlarning 72 foizi (12 trln so'm) tadbirkorlik subyektlari, 28 foizi (5 trln so'm) jismoniy shaxslar hissasiga to'g'ri kelib, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ajratilgan kreditlar hissasi 2020-yilga nisbatan 2021-yilda 27 foizga oshgan (51 foiz)¹.

Muammoli kreditlarni tahlil qilish va ularni boshqarish tijorat banklari oldidagi muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Banklar doimiy ravishda kredit tavakkalchiliklarini tahlil qilish va boshqarish usullarini takomillashtirishga intilib, ularning faoliyatiga va moliyaviy barqarorlikka salbiy ta'sirini minimallashtirishga harakat qilishi shart.

Asosiy qism

Tijorat banklari tomonidan kredit berishni amalga oshirish natijasida muammoli kreditlarning paydo bo'lishi har qanday iqtisodiy sharoitlardan qat'iy nazar sodir bo'ladi. Bank amaliyotining eng muhim jihati muammoli kreditlarni boshqarishdir. Banklarning moliyaviy barqarorligi va obro'si nafaqat nizoli vaziyatni hal qilish, balki bankning muammoli kreditlar bilan ishlash usuliga bog'liq.

Muammoli kreditlar bilan ishlashga kredit berilgan paytdan boshlab va bank balansidan qarzni to'lash yoki hisobdan chiqarishgacha bo'lgan uzluksiz jarayon sifatida qarash kerak. Muammoli kreditlarni boshqarish samaradorligi har bir muammoli kreditlar faoliyatini tahlil qilish va kreditni qaytarish uchun foydalaniladigan resurslarni minimallashtirishdan iborat. Muammoli kreditlarni boshqaruvining o'zi xarajatlarini kamaytirish va kredit portfeli sifatini yaxshilash usulidir hisoblanadi.

Respublikamizda hozirgi kunda 31 ta tijorat banki o'z faoliyatini olib bormoqda va ularning 38,7 foizi davlat ulushi mavjud banklardir, lekin bozor iqtisodiyoti mulkiy plyuralizmga asoslanganligi bois banklarda davlat ulushining yuqori bo'lishi maqbul holat hisoblanmaydi. Biz quyida respublikamiz tijorat banklarida muammoli kreditlar haqidagi ma'lumotlar tahlilini o'tkazdik (1-jadval).

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi senatining "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2021-yildagi faoliyati to'g'risidagi hisoboti haqida"gi SQ-530-IV-son Qarori. 2022-yil 29-aprel.

1-jadval**Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to`g`risida****2023-yil 1-yanvar holatiga ma`lumot²**

mlrd. so`m

No	Bank nomi	Kreditlar	Muammoli kreditlar (NPL)	Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi
Jami		390 049	13 992	3,6%
Davlat ulushi mavjud banklar		324 681	12 643	3,9%
1	O`zmilliybank	89 410	2 638	3,0%
2	O`zsanoatqurilishbank	48 076	1 359	2,8%
3	Agrobank	43 846	1 685	3,8%
4	Asaka bank	36 742	1 707	4,6%
5	Ipoteka-bank	32 658	810	2,5%
6	Xalq banki	21 666	2 584	11,9%
7	Qishloq qurilish bank	20 292	790	3,9%
8	Mikrokreditbank	13 319	635	4,8%
9	Turon bank	9 431	242	2,6%
10	Aloqa bank	9 162	186	2,0%
11	Poytaxt bank	74	0,7	1,0%
12	O`zagroeksportbank	6,2	6,0	96,3%
Boshqa banklar		65 368	1 349	2,1%
13	Kapital bank	15 408	181	1,2%
14	Hamkorbank	11 423	67	0,6%
15	Ipak yo`li bank	8 065	151	1,9%
16	Orient Finans bank	5 140	33	0,6%
17	Invest Finance bank	4 777	26	0,6%
18	Trastbank	3 496	132	3,8%
19	Davr bank	3 092	48	1,6%
20	Tenge bank	2 474	181	7,3%
21	Asia Alliance bank	2 174	31	1,4%

² www.cbu.uz

22	Anor bank	2 146	53	2,5%
23	KDB bank O'zbekiston	2 032	0,0	0,0%
24	Tibisi bank	1 507	31	2,1%
25	Garant bank	1 132	87	7,7%
26	Ziraat Bank Uzbekistan	1 098	32	2,9%
27	Universal bank	870	16	1,9%
28	Ravnaq-bank	341	244	71,6%
29	Madad Invest bank	173	34	19,9%
30	Eron Soderot bankining ShB	21	0,8	3,7%
31	Uzum bank	0,0	0,0	0,0%

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, respublikamizda 2023 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra tijorat banklari tomonidan jami 390049 mlrd. so'm kredit ajratilgan bo'lsa, uning 3,6 foizi (13992 mlrd. so'm) muammoli kreditlardir. Shundan, davlat ulushi mavjud banklarda muammoli kreditlar 3,9 foizni va boshqa tijorat banklarida esa 2,1 foizni tashkil etgan. Xulosalarga ko'ra, davlat ulushi mavjud banklarda boshqa banklarga nisbatan muammoli kreditlar ulushi 1,8 foizga ko'pdir.

Rivojlangan mamlakatlarning muammoli kreditlarni boshqaruvidagi tajribasi tijorat banklari uchun muhim holar hisoblanib, ular asosan quyidagilarga qaratiladi:

- muammolarni erta aniqlash, bunda asosan banklar xavfli qarz oluvchilarni aniqlash va muammolar yuzaga kelishi ehtimolini bashorat qilish uchun baholash modellari va monitoring kabi tahliliy vositalardan faol foydalanadilar;

- kreditlarni moslashuvchan qilish. Tijorat banklari qarz oluvchilarning moliyaviy salohiyatidan kelib chiqib, ular bilan hamkorlikda to'lovlar jadvalini o'zgartirish, foiz stavkasini pasaytirish yoki qo'shimcha kafolatlar berish kabi o'zaro manfaatli yechimlarni topishga harakat qiladilar;

- rivojlangan mamlakatlarda bank faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish, shu jumladan muammoli kreditlarni boshqarishning aniq tizimini yaratishda nazorat organlarining o'rni yuqori hisoblanib, ular tijorat banklari bilan faol hamkorlik qilib, kreditlarni boshqarish bo'yicha yo'riqnomalar va tavsiyalar beradilar hamda banklar bajarishi kerak bo'lgan standartlarni belgilaydilar;

- muammoli kreditlarni qaytarishning muqobil usullarini qo'llash, qarz oluvchilarga moliyaviy qiyinchiliklardan qutulish va barqarorlikka erishish uchun moliyaviy tiklanish dasturidan foydalanish imkoniyatlari yaratiladi.

Xulosa va takliflar

Tahlil natijalarimizdan xulosa qiladigan bo'lsak, muammoli kreditlar tahlili tijorat banklari faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, ularga kredit portfeli bo'yicha asoslangan qarorlar qabul qilish, risklarni minimallashtirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. Muammoli kreditlarni boshqarish va banklarning yo'qotishlarini kamaytirishda ilg'or texnologiyalardan foydalanish, tashqi subyektlar bilan hamkorlik ham muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, muammoli kreditlarni erta aniqlash, zamonaviy tahliliy vositalar va texnologiyalardan foydalanish, shuningdek, nazorat qiluvchi organlar va tashqi tuzilmalar bilan faol hamkorlik qilish

muammoli kreditlarni samarali boshqarishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Senatining "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2021-yildagi faoliyati to'g'risidagi hisoboti haqida"gi SQ-530-IV-son Qarori. 2022-yil 29-aprel.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020 — 2025-YILLARGA MO'LJALLANGAN O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING BANK TIZIMINI ISLOH QILISH STRATEGIYASI TO'G'RISIDA" gi PF-5992-son Farmoni, 12.05.2020 yil.
3. Аминов Ф.Б. (2022). НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ КООПЕРАЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН. Экономика и социум, (10-1 (101)), 232-237.
4. Аминов, Ф. Б. (2022). УСЛОВИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.
5. Эгамбердиева, С. Р. (2021). ИҚТИСОДИЙ ИСЛОҲОТЛАР ЖАРАЁНИДА ИНВЕСТИЦИЯЛАР ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. Экономика и финансы (Узбекистан), (4 (140)), 42-47.
6. Эгамбердиева, С. Р. МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТНИНГ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРИГА ЎТИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ВА АҲАМИЯТИ.« ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТ: МУАММО, ТАҲЛИЛ ВА РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ» Халқаро илмий-амалий анжуман илмий мақолалар тўплами 20-21 май 2021 й, 460.
7. Эргашева, Н. (2022). ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ КОРХОНАЛАРИДА ҲИСОБ СИЁСАТИНИНГ ТАШКИЛИЙ-УСЛУБИЙ ТАЪМИНОТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. Innovatsion texnologiyalar, 1(04), 108-111.
8. Эгамбердиевна, А. Ҳ. (2021). ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ ЖАЛБ ЭТИШДА ҲУҚУҚИЙ ВА ИНСТИТУЦИОНАЛ АСОСЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ. Журнал Инновации в Экономике, 4(5).
9. Azimova, N. (2019). RISING THE INCOME OF POPULATION–THE GUARANTY OF LIVING STANDARD. *International Finance and Accounting*, 2019(3), 7.
10. Normamatovich, Kholmurodov O., et al. "Creating a Favorable Environment for Attracting Foreign Investment and Strengthening Its Legal Framework." *JournalNX*, vol. 6, no. 05, 2020, pp. 53-56.
11. Музаффарова, К. З. (2021). МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИГА ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ ЖАЛБ ЭТИШ ҲОЛАТИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ. *Архив научных исследований*, 1(1).
12. Музаффарова, К. З. (2019). Роль иностранных инвестиций в развитии национальной экономики Узбекистана. *Экономика и предпринимательство*, (1), 411-414.
13. БУТУНОВ, Ш. ВЛИЯНИЕ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ И БАНКОВСКИХ ФАКТОРОВ НА УРОВЕНЬ НЕДЕЙСТВУЮЩИХ КРЕДИТОВ: РЕЗУЛЬТАТЫ ПО СТРАНАМ СНГ. *ECONOMICS*, (3), 33-42.
14. NORMAMATOVICH, K. O., EGAMBERDIYEVNA, A. K., & NAKIMOVICH, B. K. Creating a Favorable Environment for Attracting Foreign Investment and Strengthening Its Legal Framework. *JournalNX*, 6(05), 53-56.

15. Турсунов, И., Рахматуллаев, А., & Бердиев, А. (2017). Формирование кластеров как фактор инфраструктурного обеспечения инновационного предпринимательства. *European Journal of Humanities and Social Sciences*, (2), 84-87.
16. Berdiyev, A. H., & Rasulov, K. K. (2022). Prospects for Cluster Activities in the Agricultural Sector: Problems and Solutions. *Journal of Marketing and Emerging Economics*, 2(5), 99-108.
17. Berdiyev, A. H., & Rasulov, K. K. (2022). Implementing Digital Technologies in Agricultural Sector. *Journal of Marketing and Emerging Economics*, 2(5), 109-113.
18. Berdiyev, A. H., & Rasulov, K. K. (2022). Issues of Increasing the Investment Potential of the Regions. *Journal of Marketing and Emerging Economics*, 2(5), 93-98.
19. Khakimovich, B. K. . (2022). Development of Private Capital Financial Statement Audit Methodology in Accordance with International Standards. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 4, 299–303.
20. Туробов, Ш. А., & Фахриддинов, Б. Ф. Ё. (2021). УЙ ХЎЖАЛИКЛАРИ ТАДБИРКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ–ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ ТАРАҚҚИЁТИ ГАРОВИ СИФАТИДА. *Экономика и финансы (Узбекистан)*, (4 (140)), 15-20.
21. Turobov, S. A., & Azamatova, G. I. (2020). REGIONAL CHARACTERISTICS OF HOUSEHOLD ENTREPRENEURSHIP ACTIVITIES IN KASHKADARYA REGION. *Economics and Finance (Uzbekistan)*,(2 (134)).
22. Turobov, S., & Azamatova, G. (2020). The Role Of Households In The Development Of The Digital Economy. *International Finance and Accounting*, 2020(3), 35.
23. Yakubova, S. (2021). Sh. The role of effective implementation of monetary policy in a pandemic condition/Sh. Sh. Yakubova, MD Raimova. *Theoretical & Applied Science*, (12), 104.
24. Усанов, А., & Рахмонкул, Д. (2019). Ўзбекистон иқтисодий ривожланишида камерал назоратнинг туган ўрни. *Экономика и финансы (Узбекистан)*, (11), 55-60.
25. Джалилов, Р. (2023). ҚЎШИЛГАН ҚИЙМАТ СОЛИҒИ БЎЙИЧА ИМТИЁЗЛАР ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *Economics and education*, 24(2), 272-278.
26. Рашидов, Р. И., & Муртазаев, Н. Р. (2020). DIRECTIONS OF INNOVATIVE AGRICULTURAL DEVELOPMENT. *ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ*, 2(7).
27. Alisherovich, T. S., & Iskandarovich, R. R. (2021). The Importance of Household Entrepreneurship in Providing Employment. *Academic Journal of Digital Economics and Stability*, 177-182.
28. Аликулов, А. Т. (2019). Ўзбекистонда иқтисодий либераллаштириш ва унинг капитал оқимига таъсири. *Экономика и финансы (Узбекистан)*, (6), 54-58.
29. Tuugunovich, A. A., & Islamovna, G. F. (2022). WHAT FACTORS INFLUENCE THE ACTIVITY OF RETAIL INVESTORS IN THE CAPITAL MARKET. *Gospodarka i Innowacje.*, 29, 373-380.
30. TUYGUNOVICH, A. A., OGLI, S. O. A., & QIZI, K. Z. K. Problems of Improving Stock Market Trading Mechanisms in Uzbekistan. *JournalNX*, 6(07), 330-334.
31. Toxirovna, S. G. (2021). Dehkan Farm-Services To Sustain Food Supply. *Academic Journal of Digital Economics and Stability*, 6, 1-5.

32. Samiyeva, G. T. (2021). The Main Tasks Of Farms And Dekhkan Farms In Ensuring Productive Security In Uzbekistan. *Journal of Contemporary Issues in Business and Government*.
33. Маматов, А. А., Жураев, Т. Т., Назарова, Ф. Х., Хуррамов, А. Ф., & Маматов, М. А. (2020). Развитие хлопково-текстильных кластеров в экономике Республики Узбекистан. *Экономика и предпринимательство*, (9), 419-423.
34. Маматов, А. А., & Хуррамов, А. Ф. (2017). Иностранные инвестиции как фактор экономического роста Республики Узбекистан. *Экономика и предпринимательство*, (10-2), 98-101.
35. Хуррамов, А. (2012). О монографии ИС Абдулаева «ПРОГНОЗИРОВАНИЕ СОЦИАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНА». *ва молия Экономика*, 50.
36. Хуррамов, А. Ф. (1993). Арендные отношения и пути их совершенствования в условиях перехода к рыночной экономике (на примере хлопководческих совхозов).
37. www.cbu.uz.